

Dilso'z

"Ohlarim maning"

Visit "[Ohlarim maning](#)" on MotoLyrics.com

Zora, senga yetsaydi
urgan ohlarim maning,
Yoshim yuvib ketsaydi
dilda dog'larim maning.

Ko'ngilda alam bilan,
qayg'u bilan, g'am bilan,
Ko'zimda ginam bilan
yoshlik chog'larim maning!

Oqqush ko'ngil qo'limda,
sog'inch o'ngu so'limda,
Senga borar yo'limda
baland tog'larim - maning.

Ko'ksimdan og'riq ketmas,
bir lahzaga tark etmas,
Nahot seni eritmas
o't nigohlarim maning.

Chin oshiqlar makoni -
sahro, cho'l-biyoboni,
Majnunlar xiyoboni
manzilgohlarim maning.

Visit [Dilso'z](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.